



UDK:379.4

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI TURIZM FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHDA MUZEY PEDAGOGIKASI FANINING IMKONIYATLARI

Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: dadaboyevsuhrob89@gmail.com, +998913444999

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzey pedagogikasining pedagogika yo'nalishi talabalari uchun turizm faoliyatiga tayyorlashdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Muzeylar ta'lif jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada muzey pedagogikasining ta'lif jarayonidagi o'rni, uning turizm faoliyatiga ta'siri, shuningdek, amaliyotda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Muzeylar orqali talabalarga turistik xizmatlar, kommunikatsiya va madaniy merosni targ'ib qilish bo'yicha o'quv kurslari, ekskursiyalar va master-klasslar o'tkazilishi ta'kidlangan. Shuningdek, ta'lif muassasalarini va muzeylar o'rtaisdagi hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish zarurligi hamda amaliy o'quv kurslarini tashkil etish masalalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: muzey pedagogikasi, turizm faoliyati, ta'lif jarayoni, turizmga tayyorlash, muzeylar va turizm, amaliy o'quv kurslari, master-klasslar, ekskursiyalar, turistik xizmatlar, innovatsion ta'lif texnologiyalari.

THE POSSIBILITIES OF THE SUBJECT OF MUSEUM PEDAGOGY IN THE DIRECTION OF STUDENTS OF THE PEDAGOGICAL DIRECTION TO TOURISM ACTIVITIES.

Annotation. This article analyzes the possibilities of museum pedagogy in preparing for tourism activities for students of the pedagogical direction. Museums serve to form not only theoretical knowledge, but also practical skills in the educational process. The article examines the role of museum pedagogy in the educational process, its impact on tourism activities, as well as the problems that arise in practice and ways to solve them. Through museums, it is emphasized that students will receive training courses, excursions and master classes on tourist services, communication and promotion of cultural heritage. The issues of strengthening cooperation between educational institutions and museums, the need for the introduction of new technologies and the organization of practical training courses are also outlined.

Keywords: Museum pedagogy, tourism activities, educational process, preparation for tourism, museums and tourism, practical training courses, master classes, excursion

ВОЗМОЖНОСТИ МУЗЕЙНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИСЦИПЛИНЫ В ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ НА ТУРИСТСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ



Аннотация. В данной статье анализируются возможности музейной педагогики в подготовке студентов педагогического направления к туристской деятельности. Музеи служат для формирования в образовательном процессе не только теоретических знаний, но и практических навыков. В статье рассматривается роль музейной педагогики в образовательном процессе, ее влияние на туристскую деятельность, а также проблемы, возникающие на практике, и пути их решения. Особое внимание уделяется проведению учебных курсов, экскурсий и мастер-классов по продвижению туристических услуг, коммуникаций и культурного наследия для студентов через музеи. Также указаны вопросы укрепления сотрудничества между образовательными учреждениями и музеями, внедрения новых технологий и организации практических учебных курсов.

Ключевые слова: музейная педагогика, туристская деятельность, образовательный процесс, подготовка к туризму, музеи и туризм, практические образовательные курсы, мастер-классы, экскурсии

KIRISH

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida muzey pedagogikasining nazariy asoslarini konseptual rivojlantirish, muzeylar faoliyatini yanada professionallashtirish bilan birga, bu sohaga qiziqishni oshiruvchi ta'sir vositalarini takomillashtirish orqali insonlarni yo'naltirish vazifalariga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda va bu asosda xalqaro standartlar ishlab chiqilmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliyotida muzey pedagogikasi yoshlarni turizm faoliyatiga yo'naltirishning muhim vositasi sifatida rivojlanib, uning tarbiyaviy va qiziqtiruvchanlik funksiyalari takomillashtirilmoqda. Shu bois dunyoning ta'lim salohiyati yuqori hisoblangan mamlakatlarda muzey pedagogikasiga doir pedagogik imkoniyatlarning samarali usullarini topish va bu orqali aksiologik, informativ, reguliyativ va gnoseologik funksiyalarini amalga oshirishning maqsadli mexanizmini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrdagi O'RQ-177сонли "Muzeylar to'g'risida"gi qonunida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.



Zamonaviy ta'lim tizimida turizm sohasi nafaqat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, balki madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishning samarali vositasi sifatida ham e'tirof etilmoqda. Bu jarayonda muzeylar alohida o'rin tutadi, chunki ular tarixiy, madaniy va ilmiy bilimlarni jamlagan holda, ta'lim va tarbiyaning muhim maskanlari hisoblanadi. Muzey pedagogikasi esa ushbu maskanlarning ta'limiy salohiyatini oshirishga qaratilgan fan sifatida shakllanib, talabalar ni turizm faoliyatiga tayyorlashda keng imkoniyatlarga ega.[1]

Muzey pedagogikasi orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Muzeylarda tashkil etiladigan ekskursiyalar, interaktiv ko'rgazmalar va boshqa ta'limiy tadbirlar talabalar ni turizm sohasidagi faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, muzeylar orqali talabalar madaniy merosni o'rganish, uni targ'ib qilish va saqlash bo'yicha zarur ko'nikmalarni hosil qiladilar.[2]

Ushbu maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga yo'naltirishda muzey pedagogikasi fanining imkoniyatlari batafsil tahlil qilinadi. Muzey pedagogikasining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning turizm faoliyatiga ta'siri, shuningdek, amaliyotda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, ta'lim muassasalari va muzeylar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish zarurligi hamda amaliy o'quv kurslarini tashkil etish masalalari ham yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ilmiy maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga yo'naltirishda muzey pedagogikasi fanining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada muzey pedagogikasining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning turizm faoliyatiga ta'siri, shuningdek, amaliyotda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish jarayonida muzey pedagogikasining turizm ta'limidagi o'rni va ahamiyati bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjudligi aniqlandi. Masalan, Baydjanov B.X. va Ubaydullayev S.S. tomonidan yozilgan "Muzey pedagogikasi vositasida talabalarining turizm faoliyatiga



tayyorlanishining amaliyotdagi holati" nomli maqolada muzeylarning ta'lim jarayonidagi roli va turizmga ta'siri tahlil qilingan.

Shuningdek, "Muzey pedagogikasi innovatsion pedagogik texnologiya sifatida" nomli maqolada muzey pedagogikasining ta'limdagi innovatsion yondashuvlari va uning turizm ta'limiga integratsiyasi masalalari yoritilgan.[3]

Bundan tashqari, "Bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashning mazmuni va didaktik imkoniyatlari" nomli maqolada muzey pedagogikasining bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalaniladi:

- Adabiyotlarni tahlil qilish: Mavzuga oid ilmiy manbalar, maqolalar va monografiyalar o'rganilib, ularning mazmuni tahlil qilinadi.
- Taqqoslash usuli: Turli tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlar va natijalar solishtirilib, umumiylar chiqariladi.
- Empirik tadqiqot: Muzey pedagogikasining turizm ta'limidagi amaliy qo'llanilishi bo'yicha mavjud tajribalar o'rganilib, ularning samaradorligi baholanadi.
- Intervyu va so'rovnomalar: Pedagogika yo'nalishi talabalari va o'qituvchilari bilan intervyu va so'rovnomalar o'tkazilib, ularning fikr-mulohazalari tahlil qilinadi.

Ushbu metodlar orqali muzey pedagogikasining pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga yo'naltirishdagi imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Muzey pedagogikasi o'zining ilmiy va amaliy ahamiyati bilan talabalarga turli sohalarda, jumladan, turizmda chuqur bilim va ko'nikmalarni berishda katta rol o'ynaydi. Turizm faoliyati uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarni olishda muzeylarning ta'lim berish imkoniyatlari nihoyatda muhimdir. Mazkur maqolada muzey pedagogikasi vositasida talabalarning turizm faoliyatiga tayyorlanishining amaliyotdagi holati tahlil qilinadi va shu sohadagi muammolar va istiqbollar ko'rib chiqiladi. Muzey pedagogikasi, asosan,



muzeylarda olib boriladigan ta'lim jarayonlarini o'rganadi. Bu jarayonlar orqali talabalarga o'rjanilayotgan ob'ektlar va ko'rgazmalar orqali bilimlar taqdim etiladi. Turizm sohasiga kelsak, muzeylar nafaqat tarixiy, madaniy, san'atshunoslik yoki tabiiy boyliklar haqida bilimlar taqdim etadi, balki talabalarga turistik xizmatlar, qo'llanmalar va turizm yo,nalishlari bo'yicha ham tajriba oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu tadqiqotda pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga yo'naltirishda muzey pedagogikasi fanining imkoniyatlari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, muzey pedagogikasi talabalarining turizm sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Natijalar: Muzeylarda o'tkazilgan ekskursiyalar va interaktiv mashg'ulotlar talabalar uchun turizmga oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali vosita bo'ldi. Bu jarayonlarda talabalar turistik xizmatlar, kommunikatsiya va madaniy merosni targ'ib qilish bo'yicha tajriba orttirdilar.

Muzeylar orqali talabalar o'z xalqining va boshqa millatlarning madaniy merosi bilan yaqindan tanishib, turizmda zarur bo'lgan madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Muzey pedagogikasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarining turizm sohasidagi innovatsiyalar bilan tanishishiga imkon yaratdi. Masalan, virtual ekskursiyalar va raqamli ko'rgazmalar orqali talabalar turizmning yangi shakllarini o'rgandilar.

Muhokamalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasi talabalarining turizm faoliyatiga tayyorgarligini oshirishda katta salohiyatga ega. Biroq, amaliyotda ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, ta'lif muassasalari va muzeylar o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada emasligi, resurslarning cheklanganligi va yangi texnologiyalarning yetarlicha qo'llanilmasligi kabi muammolar aniqlangan.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:



Hamkorlikni kuchaytirish: Ta'lismuassasalari va muzeylar o'rta sidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali o'quv jarayonini boyitish va talabalarga ko'proq amaliy tajriba berish mumkin.

Resurslarni kengaytirish: Muzey pedagogikasini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan resurslarni, jumladan, o'quv qo'llanmalari va texnik vositalarni ta'minlash lozim.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Ta'lismarajonida zamonaviy texnologiyalardan, masalan, virtual va interaktiv platformalardan foydalanishni kengaytirish kerak.

Muzey pedagogikasi pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga tayyorlashda samarali vosita bo'lib, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

XULOSA

Muzey pedagogikasi pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Muzeylar orqali talabalar turizm sohasida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni egallab, madaniy merosni o'rGANISH va targ'ib qilishda faol ishtirok etadilar. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lismarajonini boyitish imkoniyati mavjud.

Biroq, ta'lismuassasalari va muzeylar o'rta sidagi hamkorlikning yetarli darajada emasligi, resurslarning cheklanganligi va yangi texnologiyalarning yetarlichcha qo'llanilmasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun ta'lismuassasalari va muzeylar o'rta sidagi hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va amaliy o'quv kurslarini tashkil etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, muzey pedagogikasi pedagogika yo'nalishi talabalarini turizm faoliyatiga tayyorlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uning samarali qo'llanilishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrdagi O'RQ-177-sonli "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni.
- 2.Xo'jaev.M.T.Muzey pedagogikasiga kirish, Toshkent, 2017.



3. Baydjanov B.X. va Ubaydullayev S.S. "Muzey pedagogikasi vositasida talabalarining turizm faoliyatiga tayyorlanishining amaliyotdagi holati" Farg'ona metodika maktabi.2024-yil 1-son, 175-183 b
- 4.Rahmonov A.S.Turizm va madaniyat: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2020.3.
- Mustafayev.R.R.Muzey pedagogikasi va ta'lif jarayonidagi o'rni. "Pedagogika"jurnali, 2018.
- 5.Dadaboyev.S.M. Bo'lajak o'qtiuvchilarda innovatsion kompetensiyani rivojlantirishda muzey pedagogikasining o'rni.UrDU.Ilm sarchashmalari.2024-yil 12/2-son
- 6.Dadaboyev S.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishda muzey pedagogikasidan foydalanish. // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, [2024-12]. 2024-yil. ISSN:2181-1458
7. www.Ziyonet.uz
8. www.pedagog.uz.